



2019 yilning yanvar – may oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

6 129,8 mlrd.so'm

O'tgan yilning mos davriga
nisbatan -
115,4 %

*Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar -*

5 827,8 mlrd.so'm

*Davlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –*

302,0 mlrd.so'm

Joriy yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrida jami 6 129,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,4%ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 477,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 40,7 %ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,2%ga ko'paygan.

Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar




Norasmiy sektor



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da




Jami qurilish ishlaridagi ulushi, %da



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa turdag'i tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,7 % to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga o'sgan holda 3783,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 punktga kamayib, 14,2 % ni tashkil etdi va 869,4 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilling mos davridagi hajmi bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 110,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.




Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshotlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 75,8% yoki 4646,0 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoy soha obe'ktlarini yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlarining 99,4 %i yoki 1 097,6 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan jami qurilish ishlarining 68,7%i yoki 2 599,5 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 77,1%i yoki 670,0 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.



Faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 63,7 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,0 %ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko`paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,3 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.


Qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlaring ulushi jami qurilish ishlari hajmida 63,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 17,0 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlaring ulushi jami qurilish ishlari hajmida 19,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 18,0 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 59,7 % (2,4% puktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 22,3 %ni (0,3 % punktga ko'payish) tashkil etdi.

Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Yirik pudrat tashkilotlari - 18,0 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 59,7 %
- Norasmiy sektor - 22,3 %

- Yirik pudrat tashkilotlari - 66,3%
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 33,7 %


- Yirik pudrat tashkilotlari - 10,9 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 89,1 %

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 66,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 33,7 % (8,3 % punktga kamayish) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9% punktga ko'paydi va 10,9 %ni tashkil etdi.

Qolgan 89,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga kamaydi.


Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan %da)



Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 302,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 4,9 foizni tashkil qildi, ya`ni 2018 yil yanvar-mayiga nisbatan 1,9 % punktga ko`paydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 5 827,7 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 95,1 foizni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



● Yirik pudrat tashkilotlari

● Kichik korxonalar


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 79,3 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 47,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.






Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Sergeli va Uchtepa tumanida kuzatildi 1,3%. Bu tumanlardagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumanlardagi jami qurilish ishlarining 98,7 %i.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



Tumanlar kesimida qurilish ishlari




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Bektemir tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,4 %ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining yuqori o'sish sur'atga – 115,4 % ko`rsatkichga:

- "Yunusobod" va "Sergeli" metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi "Navruz" istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: *B. Shoimqulov*
Aloqa telefonи: *(0371) 230-88-18*